

KREDITLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Xolikov Shaxzod Dilshod o‘g‘li

Bank moliya akaedemiyasi magistranti

xsh_bfa@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining kreditlaridan samarali foydalanish orqali sanoat korxonalarini rivojlantirish orqali aholini kambag‘alchilikdan chiqarish yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib banklarning kreditlardan foydalangan holda sanoat korxonalarini rivojlantirish yo‘llarini oshirishga mavzusi to‘liq bayon qilib berilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi sanoatning iqtisodiyotdagi o‘rni, bank kreditlarining sanoat moliyalashuvi jarayonidagi ahamiyati va samarali kreditlash tizimining hozirgi holati bilan bog‘liq dolzarb masalalarni aniqlashdan iboratdir.

Annotation: This article is aimed at studying ways to lift the population out of poverty through the development of industrial enterprises through the effective use of commercial bank loans. The topic of improving the development of industrial enterprises using bank loans is fully described. The main purpose of the study is to identify current issues related to the role of industry in the economy, the importance of bank loans in the process of industrial financing, and the current state of the effective lending system.

Kalit so‘zlar: Tijorat banklari, kreditlash, sanoat korxonalari, moliyalashtirish, iqtisodiy rivojlanish, risk boshqaruvi, innovatsion yechimlar.

Keywords: Commercial banks, lending, industrial enterprises, financing, economic development, risk management, innovative solutions.

Mamlakatimizda keyingi yillarda moliyaviy sektorni izchil isloh qilish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilib, ilg‘or bank biznesini yuritish, sohada raqobat muhitini kuchaytirish, xizmatlar sifatini oshirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni bilan bank tizimini isloh qilishning keng miqyosli yo‘nalishlari belgilab berildi.

Prezidentimiz farmoni qabul qilingunga qadar aksariyat tijorat banklarimizda bank xizmatlarining bir tomonligi yani, tanlovning yuqligi, bir xilligi, zamon talabiga javob beraolmasligi mijozlarning haqli e'tiroziga sabab bo'layorgan edi. Ushbu kamchiliklarni quyidagi omillar yuzaga keltirayotgan bo'lsa, uning ortidan salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi tabiiy edi.

Tijorat banklari tomonidan olib borilayotgan keng ko'lamli transformatsiya jarayonida ushbu farmon talablariga katta e'tibor qaratilayotganligini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Xususan, transformatsiya jarayonlarining avvalambor bank faoliyatini to'liq diagnostikadan o'tkazish, boshqaruv tizimi va tashkiliy tuzilmalar faoliyatini xalqaro talablar darajasiga muvofiqlashtirish ish samaradirligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biridir. Bank tarmoqlarida mijozlarning toifalaridan kelib chiqib (jismoniy shaxs (bir martalik, doimiy), yuridik shaxs (yirik va mayda), (aylanmasidagi pul mabmag'lardan kelib chiqib)) individual xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni (universal darajada barcha bank xizmatlarini to'liq va aniq biladigan va amalga oshira oladigan) guruhini shakllantirilib, mijozbay xizmat ko'rsatish tizimi joriy etishni yo'lga qo'yish bu boradagi muammolarga yechim bula oladi. Mijozlarga xizmat ko'rsatishni barcha filiallarda bir xillartirish tijorat banklarining tarmoqlarida tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish orqali ular faoliyatini mahsulot sotishga yo'naltirib, mijozlarga istalgan tarmoqdan xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish uchun barcha filiallararo operatsiyalar yagona bank kodiga o'tkazish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-29-son Farmoniga muvofiq. Kredit munosabatlari iqtisodiyotda mavjud aniq uslubiy asoslarga tayanadi. Uning asosiy elementlari bo'lgan ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma'lum tamoyillar asosida olib boriladi. Bu tamoyillar kredit munosabatlari rivojlanishining birinchi bosqichida ko'zga tashlangan edi, keyinchalik esa ular umumdavlat va xalqaro kredit qonunchiligida yaqqol o'z aksini topdi. Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit qaytib berishlik, kreditning muddatliligi, kreditning ta'minlanganligi, maqsadliligi va to'lovliligi kabi bir necha tamoyillarga ega. Biz ko'rib o'tmoqchi bo'lgan tamoyil kreditning

ta'minlanganligidir. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik kodeksi", "Ipoteka to'g'risida"gi va "Garov to'g'risida"gi qonunlari kredit ta'minlanganligining huquqiy asoslari hisoblanadi. Bu tamoyil yordamida kreditning iqtisodiyotni rivojlanishida qiymat va moddiy ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlik ta'minlanadi. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, bunda xo'jalik aylanishida ishtirok etuvchi bank mablag'larining har bir so'miga muayyan miqdorda moddiy boyliklar qarama-qarshi turishi kerak. Banklar tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga berilgan har qanday kreditlar to'liq tovar-moddiy boyliklari bilan yoki ma'lum xarajatlar, xizmatlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Tarmoqlarga ta'minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankka qaytib kelmasligiga asos bo'ladi. Ko'plab mamlakatlarda kichik biznes (2017) subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda subsidiyalar, grantlar va imtiyozli kreditlar ajratish bo'yicha davlat dasturlari muhim rol o'ynaydi, ammo ular ko'p hollarda yetarli darajada mavjud emas yoki byurokratik jihatdan olish qiyin ekanligi ma'lum bo'ldi. Kichik biznes egalari o'rtasida moliyaviy savodxonlikning yetarli emasligi natijasida moliyaviy boshqaruvda xatolarga yo'l qo'yishadi, investitsiyalarni jalb qilishda qiyinchiliklarga to'qnash kelishlari ma'lum bo'ldi. Tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining yuqoriligi kichik biznes subyektlari uchun qarz yukini oshib ketishiga sabab bo'lmoqda. Kichik biznes subyektlari uchun garov obyekti va hujjatlari bo'yicha minimal talablar asosida bank mahsulotlarini yaratish, shuningdek, banklar uchun risklarni kamaytirish bo'yicha davlat kafolati dasturlarini ishlab chiqish lozim. Hukumat tomonidan kichik biznes egalari uchun moliyaviy savodxonlik va moliyaviy boshqaruv ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlari va konsalting xizmatlarini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq. Kichik biznes sohasiga sarmoya kiritadigan xususiy investorlar uchun soliq va boshqa imtiyozlarni kengaytirish, davlat subsidiyalari, kraudfanding yoki P2P kreditlash kabi muqobil moliyalashtirish modellaridan foydalanish orqali mikrokreditlar bo'yicha foiz stavkalarini pasaytirish zarur. Banklar tomonidan nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarni, balki kichik biznes sub'ektlarining biznes tarixi, bozordagi obro'si, raqamli makondagi faolligi va boshqa omillarni hisobga olgan holda ularning kreditga layoqatliligini baholash uchun yanada moslashuvchan va zamonaviy skoring modellarini joriy etish maqsadga muvofiq. Banklar

to'lov shartlari va imtiyozli davrlarni o'z ichiga olgan startaplar va innovatsion korxonalar uchun ixtisoslashtirilgan kredit mahsulotlarini ishlab chiqishi va taklif qilishi, shuningdek, loyihalar salohiyatini baholashda va rivojlanishning dastlabki bosqichlarida startaplarga kreditlar berish uchun akseleratorlar va inkubatorlar tajribasidan foydalanish kerak. Bankning doimiy mijozlari uchun maxsus kreditlash shartlarini joriy etish orqali foiz stavkalarini pasaytirish va kreditlash limitlarini oshirish, kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha inqirozga qarshi dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek, kreditlarni qayta tuzish va vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelgan vaqtda imtiyozli davr yoki kredit ta'tilini taqdim etish maqsadga muvofiq.

1 jadval

Kichik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar va o'rta tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ajratilgan kreditlar

								mlrd.so 'm
Davr	Ajratilgan kreditlar		shundan:					
			yuridik shaxslarga		yakka tartibdagi tadbirkorlarga		aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun	
	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
1	2	3	4	5	6	7	8	9
2020-yil	281 214	48 389,7	71 883	42 498,4	33 209	2 289,2	176 122	3 602,1
2021-yil	436 110	59 552,1	69 700	49 715,0	27 740	3 007,2	338 670	6 830,0
Dekabr	27 204	6 333,9	4 328	5 688,9	2 996	244,7	19 880	400,3

2022- yil	507 856	69 770,3	60 811	57 002,9	24 819	3 673,1	422 226	9 094,4
Dekabr	41 870	6 675,5	5 051	5 556,9	1 837	361,3	34 982	757,3
2023- yil	573 252	73 009,4	78 620	57 438,1	24 553	6 076,2	470 079	9 495,2
Dekabr	41 908	5 838,1	8 944	4 570,6	3 308	632,4	29 656	635,1
2024- yil	538 538	92 424,8	78 602	68 876,2	87 293	17 202,1	372 643	6 346,5
Dekabr	41 382	5 823,8	7 171	4 549,6	2 747	735,4	31 464	538,8

Manba: cbu rasmiy malumotlaridan foydalanib muallif tomonidan tuzildi.

1- jadvalda ko'rishimiz mumkinki 2020 – 2024 yillar davrida Kichik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar va o'rta tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ajratilgan kreditlar ko'rishimiz mumkin. 2020 yilda jami ajratilgan kreditlar soni 281 214 ta, 48 389,7 mlrd.so'm tashkil etgan, shundan yakka tartibdagi tadbirkorlarga 33 209, 2 289,2 mlrd.so'm tashkil etgan, aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun 176 122 ta, 3 602,1 mlrd.so'm tashkil etgan. 2024 yilda jami ajratilgan kreditlar soni 538 538 ta, 92 424,8 mlrd.so'm tashkil etgan, shundan yakka tartibdagi tadbirkorlarga 87 293 ta, 17 202,1 mlrd.so'm tashkil etgan, aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun soni 372 643 ta, 6 346,5 mlrd.so'm tashkil etgan. Iqtisodiy (2024) rag'batlantirish – tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosatini amalga oshirish jarayoni bo'lib, makro (iqtisodiyot), mezo (mintaqa, tarmoq) va mikro (korxona) darajalarida amalga oshiriladi. Iqtisodiy rag'batlantirishning tegishli ta'siri korxonalarining ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatining maqsadli ta'sirini ta'minlashni muvofiqlashtirish, korxona xodimlarining mehnat faoliyati uchun motivatsiyani shakllantirish va chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali dastur natijalariga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishni, raqobatbardoshligini oshirishni o'z ichiga oladi.

Tadbirkorlikni tashkil etish tizimida, shuningdek, iqtisodiy rag'batlantirishni amalga oshirish va qishloq xo'jaligi tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirishda qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari

hisobga olinadi. Xususan, qishloq xo‘jaligi korxonalarining samarali ishlashini ta’minlash maqsadida qishloq xo‘jaligi faoliyatida e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan beshta tarmoq xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:


- institutsional xususiyatlar - qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish sohasida zarur huquqiy bazaning takomillashmagani; davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash zarurati; qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining rivojlanish darajasi va sur‘atlarining tarmoq talab va ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emasligi;
- iqtisodiy xususiyatlar - kalendar yil davomida aylanma mablag‘larning notekis tushishi; tijorat banklari tomonidan qishloq xo‘jaligi tuzilmalarini kreditlashning yetarli darajada emasligi; investitsiya qilingan mablag‘larni qaytarish muddati uzoqroq;
- texnologik xususiyatlar – tabiiy va iqlim sharoitlariga haddan tashqari bog‘liqlik; ishlab chiqarishning mavsumiyligi; yuqori material sig‘imi; maxsus qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish zarurati; ishlab chiqarishning past harakatchanligi; asosiy fondlarni joylashtirish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni saqlash uchun katta maydonlarni jalb qilish zarurati; uzoq ishlab chiqarish tsikli; mahsulotning buzilishi va cheklangan saqlash muddati ehtimoli;
- ijtimoiy xususiyatlar – qishloq aholisining daromadlari va ta’lim darajasi shahar aholisiga nisbatan pastligi; vayron qilingan ijtimoiy va yo‘l infratuzilmasi; qishloq aholisiga maishiy xizmat ko‘rsatishning tegishli darajada yo‘qligi; qishloq joylarda ish o‘rinlarining yetishmasligi;
- etnik xususiyatlar – tarixiy voqealar ta’sirida shakllangan va qishloq aholisining o‘ziga xos mentaliteti va iqtisodiy tafakkurini shakllantirgan, buni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Tegishli murakkab mexanizm mavjud bo‘lgan taqdirda tashkiliy-iqtisodiy vositalar samarali ishlaydi.

Qishloq xo‘jaligi sohasidagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni qishloq xo‘jaligi korxonalarining ishlash tartibini shakllantiradigan va ta’sir qiluvchi tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy, boshqaruv, tartibga solish choralari va jarayonlari tizimi sifatida kutilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa natijalarni ko‘rib chiqish kerak. Agrobiznes korxonalari rivojlanishini ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy vositalarining asosiy tarkibiy

qismi bo‘lgan tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy, boshqaruv va tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshirish, albatta, izchil va tizimli xarakterga ega bo‘lishi kerak. Xususan:

- ✓ O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining elementlariga bozor tipidagi subyektlarni yaratish;
- ✓ qishloq xo‘jaligi bozori infratuzilmasi;
- ✓ yer munosabatlarini tashkil etish;
- ✓ agrar sohani boshqarish tizimi;
- ✓ qishloq tadbirkorligi va agroservis kooperatsiyasini rivojlantirish;
- ✓ qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlari;
- ✓ investitsiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish;
- ✓ davlat nazorati va moddiy-texnik ta’minoti tizimi;
- ✓ kreditlash va bank xizmatlari;
- ✓ qishloq xo‘jaligi bozorlarini sug‘urtalash;

1 – diagramma. Tijorat banklarining 2022 – 2024 yillarda bergan kreditlari



Manba: cbu rasmiy malumotlaridan foydalanib muallif tomonidan tuzildi.

Keltilgan diagrammada tijorat banklarining 2022 – yildan 2024 – yilgacha bergan kreditlari aks etganini ko‘rishimiz mumkin. 2022 – yilda kreditlar jami 382 078,1 mlrd.so‘m tashkil etgan kreditlarning shundan davlat ulushi mavjud banklar bergan kreditlari 318 787,9 mlrd.so‘m boshqa banklardan berilgan kreditlar 63 290,1 mlrd.so‘m kredit berilgan. 2023 – yilda kreditlar jami 465 493,4 mlrd.so‘m tashkil etgan kreditlarning

shundan davlat ulushi mavjud banklar bergan kreditlari 331 070,3 mlrd.so‘m berilgan, boshqa banklardan berilgan kreditlar 134 423,1 mlrd. so‘m kredit berilganini ko‘rishimiz mumkin. 2024 – yilda kreditlar jami 525 886,5 mlrd.so‘m tashkil etgan kreditlarning shundan davlat ulushi mavjud banklar bergan kreditlari 363 938,6 mlrd.so‘m berilgan, boshqa banklardan berilgan kreditlar 161 947,9 mlrd. so‘m kredit berilganini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-29-son Farmoniga muvofiq.

2. Sh.Mirziyayevning (2019) uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -T.

3. R. Toymuhamedov (2021)“Bank ishi”. Darslik.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrda “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 306-sonli ,

5. 2023-yil 15-noyabrda “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 366-sonli

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvarda “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 37-sonli qarorlari

7. Abdullaeva SH.Z. va boshq. Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish. O‘quv qo‘llanma.–T.: IQTISOD-MOLIYA. 2017.– 182 b.

8. Abdullaeva SH. Bank ishi. Darslik.-T.: Toshkent. 2003.-312 b.

9. Abdullaeva SH.Z. Bank risklari va kreditlash. -T.: Moliya. 2002.- 304 b.

10. Abdullaev YO., Qoraliev T., Toshmurodov SH., Abdullaeva S. Bank ishi. O‘quv qo‘llanma.-T.: IQTISOD-MOLIYA. 2009.– 548 b.

11. Alaverdov A.A. Strategicheskiy menedjment v kommercheskom banke.-M.: Market DS. 2007.-576 s.

12. Liu Xiangfeng // SME Development in China: A Policy Perspective on SME Industrial Clustering. Institute for International Economic Research (IIER), National Development and Reform Commission (NDRC). – Report 2020–5, pp. 37–68

13. <https://www.bankrate.com> – маълумотлари асосида тайёрланди.

14. <https://iz.ru> – маълумотлари асосида тайёрланди.

15. <https://www.norma.uz> – маълумотлари асосида тайёрланди.

16. <https://oz.sputniknews.uz/20240305/ozbekiston-sanoat-korxonalar-42777662.html>

17. Farxodjon I (2024) “Tadbirkorlikni rivojlantirish va davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashni tashkil etishning nazariy va uslubiy tamoyillari”.